

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**AL – XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

KARIMOVA NODIRA YULDASH QIZI

**JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**5112000-Jismoniy madaniyat bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

D.B.Yaqubova



Urganch – 2016

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I. bob. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning nazariy asoslari.....	9
1.1. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning ilmiy- pedagogik asoslari.....	9
1.2.Jismoniy tarbiya darslarini tashkil etilish tarixi.....	17
1.3. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarning qo‘llashning hozirgi holati.....	21
II.bob Tadqiqotning vazifalari, uslublari va pedagogik tajribani tashkil qilish tartibi.....	26
2.1. Tadqiqotning vazifalari.....	26
2.2. Tadqiqot uslublari va qo‘llash tartibi.....	26
2.3. Tadqiqotning o‘tkazilishi.....	27
III.bob. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning shakllari va metodikasi.....	28
3.1. Ilmiy pedagogik adabiyotlar, tadqiqotlarni o‘rganish orqali jismoniy tarbiya darslari jarayonida pedagogik texnologilarni joriy etishning nazariy asoslari va omillarini aniqlash.....	28
3.2. Jismoniy tarbiya darslarini loyihalashtirish texnologiyasi.....	34
3.3. Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalar.....	41
Xulosalar.....	47
Foydalanilgan adabiyotlar.....	49

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining dunyo taraqqiyoti darajasidagi istiqbolini ta‘minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma‘daniy sohalarida katta o‘zgarishlar bo‘lishi bilan bog‘liq. Bunday o‘zgarishlarda ishtirok etish insonlardan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, yuksak madaniyat, ma‘naviyat va keng dunyoqarashni talab etadi. Ta‘lim tizimini shu talablar asosida qayta qurish – jamiyatning kelajak avlod tarbiyasi sohasidagi ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek: “Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug‘ kelajagi uchun amalga oshirilmoqda¹”.

O‘zbekiston Oliy majlisining IX sessiyasida qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo‘nalishlarini belgilab berdi. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta‘limni tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Unda “Uzluksiz ta‘lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma‘naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi” - deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, dasturda: “Ta‘lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv - uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta‘minlash umumiy o‘rta ta‘limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta‘lim jarayonini unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta‘lim jarayonida o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta‘limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko‘rsatiladi. “Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shahar va qishloqda zamonaviy talablarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jihozlangan sport maydonchalari, inshoot va

majmualarni barpo etish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz o'zining ijobiy samarasini bermoqda"².

Shu ma'noda ilg'or pedagogik texnologiyalarni amalda joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligini, bir butunligini va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimining insonparvarlashuvi, demokratlashuvi va yangi texnologiyalarning kiritilishi pedagogika fani oldiga ta'limning mazmuni, tuzilishi, rivojlanish darajasi, imkoniyatlari va texnologiyasini aniqlashdek murakkab vazifalarni qo'ydi. Bu vazifalarni hal qilish bir qancha muammolarni keltirib chiqardi. Oliy Majlis palatalarning qo'shma majlisida Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, Vatanimiz mustaqilligining 25 yilligi nishonlanadigan, yangi 2016 yil ostonasida turibmiz, tariximizga kirib kelayotgan bu buyuk marra munosabati bilan o'tgan davr mobaynida xalq hayoti sifati, mamlakatimiz qiyofasi qanday o'zgarib borayotgani, qanday yutuq va natijalarga erishganimiz, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida qanday sur'atlar bilan rivojlanib borayotganimizni baholash ehtiyoji tug'ilmoqda.³

Hozirgi davrda yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish haqida matbuotda turli-tuman fikrlar bildirilmoqda. Ta'limga yangicha, texnologik yondashish haqida fikr yuritilishi tasodifiy hol emas. Yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Shunday qilish kerakki, o'quvchilar pedagogik jarayonning faol subyektlariga aylansinlar. Barcha ta'lim turlari kabi jismoniy tarbiya darslarida ham pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Chunki jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, o'quvchilarni faollashtirish, mutaqil ishlashga o'rgatish, ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarning ta'lim jarayonining faol subyektlariga aylanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin pedagogik

adabiyotlarda jismoniy tarbiya darslari ta'lim texnologiyasi masalalariga kam e'tibor berilgan. Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda jismoniy tarbiya ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Shuning uchun ham biz tadqiqotimiz mavzusini **“Jismoniy tarbiya darslarida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik imkoniyatlari”** deb nomladik.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi. Abu Ali ibn Sinoning jahon Fani oldidagi xizmati shundan iboratki o'tgan davrdagi ilmiy fikr yutuqlarini dastavval tibbiyot sohasidagi yutuqlarni umumlashtirib qolmay, o'rta asrlar fanini yanada rivojlantiradi. “Kitob ul Qonun fit tibt” ya'ni “Tibb ilmlari qonuni” degan klassik asari uning shuxratini butun dunyoga taratdi. Dunyo olimlari orasida birinchi marta jismoniy mashqlarni ta'riflab bergan va o'ziga xos tarzda klassifikatsiya qilgan (sistemaga solgan) mashhur olim Abu Ali ibn Sinoning xizmatlari ayniqsa katta. Maktab yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini ilmiy asoslab bergan rus olimi anatom, biolog, pedagog, jamoat arbobi Pyotr Fransevich Lesgaft (1837-1909) hisoblanadi. YE.N. Medinskiy so'zi bilan aytganda P.F. Lesgaft o'zining jismoniy ma'lumot nazariyasini yaratish bilan birga oila tarbiyasining nazariyasi bilan o'z ishini yakunladi. ingliz olimi, filosofi Jan Lokni (1632-1704) o'z davrida ma'lum bo'lgan fransuz olimi Jan Jak Russo (1712-1778) shvedsariyalik olim pedagog demokrat Iogan Genrix Pestolotsiy (1746-1827) asarlari kata rol o'ynadi. J.J. Russo va I.G. Pestolotsiylarni pedagogik ta'siri asosida XVIII asrda Germaniyada yangi tipdagi maktab ochiladi. Bu maktablar filontroplar burjuaziya odamsevarlari maktabi nomini oladi. Bu maktablarda kuproq o'rin jismoniy tarbiyaga berilgan edi. Jismoniy tarbiya bo'yicha ma'lum bo'lgan mutaxassislar G.Fit (1763-1836G', I.Guts-Muts (1759-1839) filontropida seki nasta keng ma'lum bo'lgan nemets gimnastikasi Fridrix Lyudovik Yan asos solgan (1778-1852) va uning tarafdorlari gimnastikani maktabdagi boshqa umumta'lim fanlarining eng zaruriy fanlaridir deb Darsning tashkil etishning xilma-xil metodlari V.V. Belinovich, K.X. Grantin, N.A. Lupandina, Z.I. Kuznetsova, V.G. Yakovleva, K.D. Novikov, L.P. Matveyev va boshqa olimlar tomonidan ochib berilgan. Keyingi yillarda jahon pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'lim texnologiyasiga qiziqish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Pedagogik texnologiya, uning ta'lim jarayonida qo'llanilishi, yo'l va usullari haqida rus pedagoglari A.A.Andreyev, V.P.Bespalko, M.T.Gromkova, M.V.Klarin, Mila Noviklar, amerikalik pedagog Bob Kizlik, o'zbekistonlik olimlar B.R.Adizov, B.L.Farberman, N.Saidahmedov, M.Ochilov, M.H.Mahmudov, S.Ziyamuxamedova, B. Ziyamuxamedov, O'.Tolipovlarning ishlarida bayon etilgan.

Tadqiqot maqsadi: Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning yo'l va usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning mazmuni.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: - jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etish nazariy asoslandi va uning omillari ko'rsatildi;

- jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etishni ilmiy tahlil etildi;

- jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni faollashtirish omillari, o'quvchilarning o'qish faoliyat motivlari va ularni rivojlantirish yo'llari belgilab berildi;

- jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etish tizimi ishlab chiqildi;

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: pedagogika kursi jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etishga yo'naltirilgan nazariy qarashlar va yondashuvlar bilan boyitildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etish orqali o'qish motivlari, ularni rivojlantirish yo'llari belgilab berildi.

Tadqiqotning farazi. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etishni tashkil etishga oid ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar va ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.: Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, xulosa, 24ta adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining hajmi 46 bet.

I. BOB. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning ilmiy- pedagogik asoslari

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida jamiyat hayotiga yangiliklarning kirib kelishi, inson mehnatining takomillashishi, qulaylikka ega bo'lishi, yangilanib borishiga bo'lgan ehtiyoj ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Hozirgi kunga kelib ta'lim sohasida shu davrgacha erishilgan yutuqlarni asrab-avaylagan holda ma'lum stereotiplardan voz kechish vaqti keldi. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida "Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi"-deyilgan⁴. Ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun texnologiya tushunchasining mazmunini chuqur anglash kerak. Texnologiya - yunoncha so'z bo'lib, «tehne»-mahorat, san'at, «logos»- tushuncha, ta'limot ma'nolarini anglatadi. Texnologiya tushunchasi - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmui, shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tarkibiy qismi bo'lgan amallar - materiallarni qazib olish, tashish, tartibga solish, saqlash va boshqalar ham texnologiya deyiladi. Texnologiyaga ishlab chiqarish jarayonlarini tasvirlash, ularni bajarish bo'yicha qo'llanmalar, texnik qoidalar va talablar, grafiklar ham kiradi⁵. Demak, texnologiya - bu ishlab chiqarishning ma'lum bir tarmog'ida, ishlab chiqarish jarayonlarining majmui, shuningdek, ishlab chiqarish usullarining ilmiy tavsiflanishi demakdir. Pedagogika fani va amaliyotida qo'llanilayotgan "pedagogik texnologiya" atamasi inglizcha "an educational technology" so'zidan olingan bo'lib, aynan tarjimasida "ta'lim texnologiyasi" degan ma'noni bildiradi. Pedagogik texnologiya haqida fikr yuritishdan oldin u nimani anglatishini bilishi lozim. Texnologiya yunoncha so'z bo'lib, texne - mahorat, san'at, logos - tushuncha, ta'limot ma'nolarini anglatadi.

Texnologiya tushunchasi - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmui; shunday usul va metodlarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. Pedagogika fani va amaliyotida qo'llanilayotgan "pedagogik texnologiya" atamasi inglizcha "an educational technology" so'zidan olingan bo'lib, aynan tarjimasi "ta'lim texnologiyasi" degan ma'noni bildiradi. Pedagogik texnologiya-bu ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati, hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini anglash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir⁶. Bu ta'rifni YUNESKO tashkiloti ma'qullagan. Keyingi yillarda pedagogik texnologiya har xil mualliflar turli xil ta'rif bermoqdalar. Bu ta'riflar har bir muallifning pedagogik texnologiyaga turlicha yondashuvidan darak beradi. Ulardan ba'zilari: V.P.Bespalko: «har qanday faoliyat yoki texnologiya, yoki san'at bo'lishi mumkin. San'at ichki sezgi (intuitsiya)ga, texnologiya esa fanga asoslanadi. hammasi san'atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi va yana qaytadan boshlanadi» - degan edi. M.Ochilov "Pedagogik texnologiya – tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir", degan ta'rifni beradi. Pedagogik texnologiyaga professor N.Saidahmedov: "Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni"-degan ta'rifni beradi. Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq horijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlari bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, YUNESKO ta'riflarida tizimli yondashuv tamoyillariga alohida urg'u berilgan. Ta'lim texnologiyasi – oldindan belgilangan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan, ta'lim jarayonida inson va texnika resurslaridan foydalanishning

loyixalashtirilgan muayyan tizimi.(XTV “Multimediya umumta’lim dasturlarini rivojlantirish” markazi ta’rifi). Pedagogik adabiyotlarda “pedagogik texnologiya”, “ta’lim texnologiyasi”, “tarbiya texnologiyasi” kabi atamalarga duch kelamiz. Ta’lim texnologiyasiga pedagogikada yangi tushuncha yoki ta’lim jarayonini tashkil etishning tamoman yangi usuli ham deb qaramaslik kerak. Ta’lim texnologiyasi mavjud tajribalarning ilg’or, o‘quvchilar uchun qulay shakllarini saqlagan va ijodiy rivojlan-tirgan holda o‘quvchilardagi bilim va qobiliyatlarni iivojlantirish uchun juda qulay yo‘llar bilan ta’lim funksiyasini amalgaoshirishdagi ahorat, qobiliyat va san’at tushuniladi(7.8.9).

Pedagogik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil etish pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilari qatorida quyidagilarni ko‘rsatishga imkon beradi:

- ta’lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o‘quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;
- tizimli yondashuv asosida talabaning o‘quv-biluv faoliyatini tavsiflaydigan ta’lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta’lim maqsadi real, aniq diagnostik bo‘lishi va o‘quvchining bilim o‘zlashtirish sifatini obyektiv baholash;
- ta’lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o‘zaro bog‘liq va bir-biriga o‘zaro ta’sir ko‘rsata olishi;
- ta’lim shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish);
- ta’lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o‘zaro ta’sirini hisobga olish;
- o‘quvchilarning kuzatiladigan, aniqlanadigan harakatlari sifatida ta’lim maqsadlarini ko‘zlagan etalon asosida oydinlashtirish;
- talabaning faolligiga tayanib o‘qitish;
- bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;
- belgilangan mezonlarga binoan test topshiriqlarini bajarish;

- ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishish kafolatlanganligi;
- ta'lim samaradorligining yuqoriligi.

Hozirgi davrda yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish haqida matbuotda turli-tuman fikrlar bildirilmoqda. Ta'limga yangicha, texnologik yondashish haqida fikr yuritilishi tasodifiy hol emas. Yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Shunday qilish kerakki, o'quvchilar pedagogik jarayonning faol subyektlariga aylansinlar Pedagogik texnologiyaning asosi yoki zamini pedagogik tizim hisoblanadi. Pedagogik tizim - shaxsda ma'lum sifatlarni shakllantirishga qaratilgan umumiy maqsad asosida ta'sir etishning metod, vosita, jarayonlarning o'zaro bog'liq majmuidir. Har qanday jamiyatda pedagogik tizimning maqsadi jamiyatning shaxsni shakllantirishga qo'ygan talablari asosida belgilanadi va jamiyat talablari asosida tizim ham o'zgarishi mumkin. Juda ko'p tadqiqotlarga asoslangan holda V.P. Bospalko pedagogik tizimning o'zaro bog'liq 6 ta elementini ko'rsatadi.

- Bular: 1) o'quvchi;
- 2) ta'lim - tarbiyaning maqsadi;
- 3) mazmuni;
- 4) didaktik jarayoni;
- 5) o'qituvchi yoki texnik vositalar;
- 6) ta'lim - tarbiyaning tashkiliy shakllari.

Bu tizimdagi dastlabki 3 element didaktik vazifa, qolgan 3 tasi ta'lim texnologiyasi sifatida ko'rsatiladi. Ko'rsatilgan strukturada shaxsda ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi bir - biriga bog'liq aloka ko'rsatiladi. Pedagogik tizimning bu strukturasida har qanday ilmiy nazariyada uchraydigan dastlabki tushunchalar: vazifa va uning yechish texnologiyasi ko'rsatilgan. Pedagogik texnologiya fan sifatida ham, shuningdek, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan prinsiplar, yo'd va usullar sifatida ham shakllanib kelmoqda. Hozirda mavjud bo'lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha

belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o'tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoyildan foydalanmaydi, ya'ni quyida keltiriladigan turlargagina xos bo'lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilar bo'yicha turlarga ajratiladi. Bu masalaga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz(11,13,15). Bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha pedagogik texnologiyalarning quyidagi turlari ma'lum:

- klassik (mumtoz) ma'ruza;
- texnika vositalari yordamida o'qitish;
- maslahatchilik tizimi;
- darslik bo'yicha o'qitish;
- kichik guruhlar tizimi;
- kompyuter yordamida o'qitish;
- repetitorlik tizimi;
- dasturlashtirilgan boshqaruv.

Ta'lim oluvchiga yondashuv turi bo'yicha pedagogik texnologichlar quyidagicha nomlanadi:

- avtoritar;
- didaktik yo'naltirilgan;
- ijtimoiy yo'naltirilgan;
- antropologik yo'naltirilgan;
- pedagogik yo'naltirilgan;
- shaxsga yo'naltirilgan;
- insonparvarlikka va shaxsga yo'naltirilgan;
- hamkorlik texnologiyalariga yo'naltirilgan.

Qo'llaniladigan asosiy metod bo'yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- dogmatik, reproduktiv metod;

- tushuntirish, ko'rgazmali;
- rivojlantiruvchi ta'lim;
- muammoli izlanish;
- ijodiy metod;
- dasturlashtirilgan ta'lim metodi;
- dialogli metod;
- o'yin metodi;
- o'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim metodi.
- Axborotli (kompyuterli) ta'lim metodi.

Tashkiliy shakllariga ko'ra pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- hozirgi an'anaviy ta'lim;
- shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayon asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- o'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- o'quv jarayonini boshqarish va tashkil qilish samaradorligi asosidagi pedagogik texnologiyalar;
- materialni didaktik takomillashtirish va rekonstruksiyalash asosidagi pedagogik texnologiyalar
- xususiy fanlar pedagogik texnologiyalari;
- alternativ texnologiyalar;
- tabiatga moslashtirilgan texnologiyalar;
- rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
- mualliflik maktabi pedagogik texnologiyalari.
- texnologiyalarni loyihalash va o'zlashtirish texnologiyalari.

Pedagogik texnologiya haqida fikr yuritganda uni uchta aspektda ko'rish mumkin.

Pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi.

Pedagogik texnologiya

Pedagogik texnologiya Texnologik jarayon.

- - ta'lim jarayonini tashkil etish.
- - o'quvchilarning o'quv faoliyati shakllari va metodlari.
- - o'qutuvchi ishining metod va shakllari.
- o'quv materialining o'zlashtirish sohasidagi o'qituvchi boshqaruvi;
- ta'lim jarayoni yoki diagnostikasi.

Ta'limning mazmuni; - ta'lim maqsadi: umumiy va konkret. - o'quv material mazmuni.

Konseptual asosi

Pedagogik texnologiya quyidagilarni ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya				
O'quvchilarning rivojlanish, ijodiy shug'ullanishning metod, vositalarini o'rganishin, tafakkur rivojini, qiyinchilik-larni yengishga o'rgatadi.	O'quvchilarda o'quv materialini tushunishning muammoli izlanishning yangi shakllarini egallashga imkon beradi	O'quv yurtida ijodiy ta'limiy shart-sharoitlar yaratdi.	Har-xil real ijodiy pedagogik vazifalarni yechish tajribasini egallashga yordam beradi.	Bilish, izlanish jarayonini boshqarishni ta'minlaydi.

- **Texnologiya mezonlari:** Pedagogik texnologiyaning quyidagi asosiy xususiyatlarini ko'rsatish mumkin: - o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'quv-texnik vositalari obyekt va usullaridan maqsadli foydalanish. - pedagogik jarayonda muloqot tizimini tashkil etishni maqsadli tizimlash va pedagogik ma'lumotlarni taqdim etish. - o'quvchilarning bilim olish jarayonini boshqarish tizimi. (o'zlashtirish foyiatidagi boshqaruv tizimi). - belgilangan masalani yechish maqsadida pedagogik jarayon uslub va vositalarini konstruksiyalash (shakllantirish, ko'rish). o'qish va tarbiya jarayonini rejalashtirish - ta'lim

maqsadiga erishish uchun bir-biriga bog‘liq g‘oyalar , insonlar faoliyatini tashkil etish vositalari, resurslarini ichiga olgan tizimli bog‘lanishning kompleks integrativ jarayoni. Pedagogik tizimni loyixalash texnologiyasi.

- Ta’lim jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va baholash metodologiyasi.

Har qanday pedagogik texnologiya quyidagi metodologik talablarga javob berishi lozim.

Konseptuallik: Har bir pedagogik texnologiya o‘z tarkibida falsafiy, psixologik, didaktik, ijtimoiy pedagogik asosni qamrab olgan aniq ilmiy konsepsiaga tayanishi lozim.

Tizimlilik: Pedagogik texnologiya hamma o‘zaro bog‘liq qismlardan iborat tizimning mantiqiy jarayoni belgilariga ega bo‘lishi va yaxlit bo‘lishi lozim: Jarayonning mazmun-mohiyati uning qismlarining uzviy bog‘liqligi, yaxlitligidan iborat.

Samaradorlik. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobatli shartlar asosida mavjud bo‘lib, natijalar bo‘yicha samara berishi, optimal xarakatli bo‘lishi va ta’limning ma’lum bir standartlarini kafolatlashi shart.

Qo‘llanuvchanlik. Pedagogik texnologiya bir xil ta’lim muassasalarida boshqa subyektlar tomonidan ham qo‘llanilish imkoniyatini beradi.

Ta’lim maqsadlari va kutilayotgan natijalar. Ta’lim maqsadlarini boshqacha tarzda o‘quv maqsadlari, deb ham atashadi. O‘quv maqsadlari ta’lim jarayoni oxirida kutilayotgan natijaning yozma tavsifidan iborat. Ma’lumki, jonli ta’lim jarayonida ikki tomon: ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi ishtirok etadi. O‘quv maqsadlari ta’lim jarayonini ishtirokchilarning qaysi biri tomonidan qaralishiga qarab, o‘rganish va o‘rgatish maqsadlariga ajratiladi. Ta’lim jarayoni natijasida, ta’lim beruvchi, ya’ni, o‘rgatuvchining nimaga erishgani muhim bo‘lgani uchun, kelgusida o‘quv maqsadlari deganda, o‘rganish maqsadlarini tushunamiz. O‘quv maqsadlari – muayyan ta’lim jarayoni yakunida ta’lim oluvchi tomonidan o‘zgartirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo‘lgan bilim, xatti-harakat

bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy topshiriqni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqni belgilaydi.

1.2.Jismoniy tarbiya darslarini tashkil etilish tarixi

Insoniyat jamiyatining tarixiy guvohlik berishicha, jamiyat formatsiyasini o‘zgartirib borish jamiyat tarbiyasining maqsadi va vazifasini ham o‘zgartirib borgan, umuman va qisman jismoniy tarbiyani manbasini uni rivojlantirish tamoyillari ishlab chiqilgan o‘rgatishni samara beruvchi tomonlarini metodlari uni tashkil qilish shakllari o‘zgarib borgan. O‘rgatishni sinf-dars shakli slavyan olimi filosofi Yan Amos Kamenskiy tomonidan umumlashtirilib nazariy asoslab bergan. Uning “Ulug‘ didaktika” shartlarga ega bo‘lgan maktab qonunlari o‘rgatishni barcha shakllari shu asosiy tamoyillarga kiritilgan. Ya’ni o‘quvchilarni yoshlarini bir xilda bo‘lishi, jismoniy tayyorgarligi, darsni aniq vaqti, uning dars jadvalidagi o‘rni, darsda o‘qituvchining rahbarlik o‘rni, darsga qo‘yilgan vazifalarni albatta hal etilishi belgilab berilgan. Keyinchalik jismoniy mashqlar mashg‘ulotning xilma-xil tizimi vujudga keldi. Keyinchalik gimnastika, fextovaniye, otda yurish, o‘yinlarni xilma –xil dars sxemalari ishlab chiqildi. Vazifalarni aniqligi o‘rgatishning manbalarini, metodlarini yuksak pedagogik g‘oyalarni Yevropada XVII asr boshlarida vujudga kelishi sabab bo‘ldi. Ayniqsa ko‘zga ko‘ringan ingliz olimi, filosofi Jan Lokni (1632-1704) o‘z davrida ma’lum bo‘lgan fransuz olimi Jan Jak Russo (1712-1778) shvedsariyalik olim pedagog demokrat Iogan Genrix Pestolotsiy (1746-1827) asarlari kata rol o‘ynadi. J.J. Russo va I.G. Pestolotsiylarni pedagogik ta’siri asosida XVIII asrda Germaniyada yangi tipdagi maktab ochiladi. Bu maktablar filontroplar burjuaziya odamsevarlari maktabi nomini oladi. Bu maktablarda ko‘proq o‘rin jismoniy tarbiyaga berilgan edi.

Jismoniy tarbiya bo‘yicha ma’lum bo‘lgan mutaxassislar G.Fit (1763-1836G‘, I.Guts-Muts (1759-1839) filontropida seki nasta keng ma’lum bo‘lgan nemets gimnastikasi Fridrix Lyudovik Yan asos solgan (1778-1852) va uning tarafdorlari gimnastikani maktabdagi boshqa umumta’lim fanlarining eng zaruriy fanlaridir deb aytganlar. Gimnastika original tizimini shved drammaturgi, jamoat

arbovi Per Genrix Ling (1176-1839) tizimini yaratdi. Biroq uning gimnastika darsi aniq bir qismga ega emas edi. Keyinroq uning o'g'li Yalmar Ling pedagog Terngren, Balk, Jorlander va boshqalar dars rejasini ishlab chiqdilar. Uning asosiga "Uzluksiz", "astasekinlik», "ikkitomonlik" tomoillari olingan edi. Keyingi darslar sxemasi shu tomoillar asosida qurildi, dars vazifalarini gigiyenik taxlil qilib olindi.

XIX asr o'rtalariga kelib ko'plab Yevropa davlatlarida qisman Rossiyada Sokol gimnastika tizimi. Sokol gimnastika tizimi asoschisi Miroslav Tirsh (1832-1884) hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari har tomonlama jismoniy rivojlantirish, estetik va ahloqiy tarbiyaga kata e'tibor berildi. Sokol gimnastikasi darsi uch qismdan iborat edi. Tayyorlov, asosiy va yakuniy qismdan iborat bo'lgan. Har bir qismning davomiyligi kattalar uchun 90 minut davom etgan(17,19,21).

Fransuz olimi fiziolog, pedagog Jorj Demeni (1850-1917) jismoniy tarbiyani ajoyib tizimini ishlab chiqdi va amalda qo'lladi. Dars o'tish davrida u anatomiya, fiziologiya, gigiyena va pedagogika fanlari erishgan yutuqlarni keng qo'lladi. Dars yetti qismdan iborat bo'lib, har bir bo'lim 3 komponentdan iborat edi. (vazifasi, manbasi va mashqlarni qaytalanish soni). J.Demenini izdoshlaridan biri Eber davomiyligi 60 minutdan iborat bo'lgan darsni tashkil qilish bilan birga har kuni maktabda gimnastika darsini albatta ochiq havoda o'tilishini taklif qiladi.

Yuqorida familiyalari zikr etilgan olimlarning nazariyalarini Yangi g'oyalarini juda ko'pchilik olimlar taklif etgan edi. Maktab yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini ilmiy asoslab bergan rus olimi anatom, biolog, pedagog, jamoat arbobi Pyotr Fransevich Lesgaft (1837-1909) hisoblanadi.

Ye.N. Medinskiy so'zi bilan aytganda P.F. Lesgaft o'zining jismoniy ma'lumot nazariyasini yaratish bilan birga. Oila tarbiyasining nazariyasi bilan o'z ishini yakunladi. XIX asrda bu nazariyalar Gersen va Belinskiy tomonidan yaratilgan pishiq poydevor bo'ldi. Maktab yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini vazifalarini muvofaqqiyatli hal etish doimo va ko'p hollarda jismoniy tarbiya darsini ilmiy asoslagan holda tashkil etilishiga bog'liq.

Darsning tashkil etishning xilma-xil metodlari V.V. Belinovich, K.X. Grantin, N.A. Lupandina, Z.I. Kuznetsova, V.G. Yakovleva, K.D. Novikov, L.P.

Matveyev va boshqa olimlar tomonidan ochib berilgan. Bu jarayonni ochishda ko'pgina fiziologlar, gigiyenistlar, psixologlar qatnashganini biz bilamiz. Biroq yuqorida ko'rsatilgan olimlarning ilmiy nuqtai-nazarida har xil tavsiyalar va tortishuvlar mavjud. Jismoniy tarbiya amaliyotida to'plagan tajribalar natijasini umumlashtirgan xolda jismoniy tarbiya o'qituvchisiga to'g'ri nuqtai nazardan asoslagan dars nazariyasi haqida tushuncha bermoqchimiz. Shu maqsadlarni amalga oshirish uchun A.N. Xan tomonidan chop etilgan o'quv kitobini to'ldirish, o'z tajribamizdan, kuzatuvimizdan kelib chiqqan holdayagona tushunchaga ega bo'lish maqsadida ko'lingizdagi risolani yaratishga jazm etdik. Avvalombor u yoki bu dars qismlarining qonuniyatlari ustida so'z yuritishdan oldin uni asosiy pedagogik mezon, qonuniyatlari aniqlab olish kerak bo'ladi. Biroq na didaktikada na jismoniy tarbiya nazariyasida aniq bir tizimga solingan tushuncha yo'q, bu o'z holida xamda metodistlar o'rtasida o'zaro tushunchani murakkablashtirishga olib kelmoqda. Shuning uchun bizning asosiy diqqatimiz tayanch tushunchalarni aniqlab olish mohiyatiga qaratildi. Bu har xil tushunchalarga chek qo'yadi, va o'ziga xos bir butun platformani tuzish imkonini beradi, pedagogik jarayon uchun bir butun konsepsiyani ishlab chiqarish imkonin beradi. Jismoniy tarbiya nazariyasini asosiy tushuncha sifatida qarab chiqishda biz uni maqsadini, vazifasini, manbasini, shartini, printsipini va rahbarlik shaklini tashkil qilish, tez yurish, nayza uloqtirish, balandlikdagi biror buyumga sakrab osilib olish, bir oyoqda sakrash, qilichbozlik nayzabozlik qilish, chavondozlik, ikkala qo'lni silkitish. Ravon va yengil mashqlar jumlasiga arg'umchoq va kemalarda sayr qilish. Ot va tuyalarda yurish taxtiravon va aravalarda yurishancha kuchli mashqlar jumlasiga kiradi. O'z soyasi bilan olishish, shapoloq urish, sakrash, nayza uchi bilan sanchish, katta va kichik to'p bilan chovgan o'ynash, to'p o'ynash, kurash tushish, tosh ko'tarish ot choptirish va chopib kelayotgan otni to'xtatib qo'yish kabilar kuch talab qiladigan mashqlar jumlasiga kiradi(22,23,24).

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasidagi o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya joriy qilishga birinchi marta urinib ko'rildi. Erkaklar va qizlar gimnaziyalarda va ba'zi maktablarda birinchi marta jismoniy tarbiya joriy etildi.

Biroq dars nazariyasini ham, metodikasini ham, biladigan mutaxassis yo‘q edi. 1910 yilda Turkiston o‘lkasida “Poteselniye polki” deb ataluvchi qismlar cho‘zildi, yarim sport va yarim harbiy yo‘nalishdagi qismlar tuzildi.

Jismoniy tarbiya darsining nomlanishi juda ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Jismoniy madaniyat darsimi yoki jismoniy tarbiya darsimi, jismoniy madaniyat o‘qituvchisimi, jismoniy tarbiya nazariyasimi. Bu bayramona savol emas javob talab etuvchi savol. Bu tushunchalarni anglash, to‘g‘ri tushunish uchun tarixiy-mantiq jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyatni mohiyatini tushunish kerak bo‘ladi. Maxsus tadqiqotlarda, lug‘at ensiklopediyasida jismoniy tarbiyani umumiy tarbiyani bir qismi ekanligini, jismoniy madaniyat umumjamiyat madaniyatini bir qismi ekanligini anglaymiz. Jismoniy tarbiya nazariyasini ilmiy asoslanishda professor V.V. Gorinevskiy ilmiy asarlari katta rol o‘ynadi. Beruniy zamondoshi, asli Buxoro yaqinidagi Afshon qishlogida tug‘ilgan ulug‘ olim Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) Fan sohasida erishgan yutuqlarining o‘zbek xalqi va butun O‘rta Osiyo xalqlari tarixida benihoya katta ahamiyati bor. Abu Ali ibn Sinoning jahon Fani oldidagi xizmati shundan iboratki o‘tgan davrdagi ilmiy fikr yutuqlarini dastavval tibbiyot sohasidagi yutuqlarni umumlashtirib qolmay, o‘rta asrlar fanini yanada rivojlantiradi. Shu jumladan e‘tibor bergan bo‘lsangiz yuqorida biz sanab o‘tgan olimlardan 1000-1200 yil oldin inson badan tarbiyasi haqida ya‘ni jismoniy mashqlarni qachon va qanday qo‘llanishi haqida o‘zining jahonshumul ahamiyatga ega bo‘lgan asarini yaratdi. Jumladan “Kitob ul Qonun fit tibb” ya‘ni “Tibb ilmlari qonuni” degan klassik asari uning shuxratini butun dunyoga taratdi. O‘rta Osiyodagina emas butun Dune olimlari orasida birinchi marta jismoniy mashqlarni ta’riflab bergan va o‘ziga xos tarzda klassifikatsiya qilgan (sistemaga solgan) mashhur olim Abu Ali ibn Sinoning xizmatlari ayniqsa katta. Olimning jismoniy mashqlarning o‘ziga xos tarzda klassifikatsiya kilganining ham katta ahamiyati bor. U jismoniy mashqlar xilma-xil bo‘lishini alohida ta’kidlaydi. Bunday mashqlar, chunonki, kichik va katta, juda kuchli va sust, sokin yoxud ildam, bir necha keskin va tez xarakatlardan iborat bo‘lishi, eng tezbilan sust mashqlar o‘rtasida mo‘tadil mashqlar bo‘lishi mumkinligina aytadi.

Tez bajariladiganiga olim quyidagilarni kiritadi: tortishuv, mushtlashish, o‘q yoy otish. Nazariya va amaliyot umuman olganda qisman jismoniy, uni maqsadini aniqlash boshlanadi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi-garmonik rivojlanishiga yordamlashish, jismoniy takomillashuvga yordam berish, ongli iroda sifatlarini tarbiyalash yuqorilab chiqish, ijodiy mehnat qilish imkoniyatini tarbiyalashdan iborat. Jismoniy tarbiya vazifasini xalq etishg‘maxsus manbalar yordamida amalga oshiriladi. Jismoniy mashqlar-erkin xarakatlar, xarakat faoliyatlari, har xil o‘yinlar, gimnastika, turizm, sport. So‘ng-aniq shart-sharoitlar (shug‘ullanuvchilarni yosh xususiyatlarini bilish va uni hisobga olish, material sport baza, muntazam tibbiy nazorat, gigiyenik me‘yorlarni bilish, sanitariya va gigiyena qoidalarini saqlash, tabiatning tabiiy omillarini saqlash, foydalana bilishlik, mutaxassis kadrlarni mavjudligi ijtimoiy, maishiy va boshqa shartlarni bajarish. Nihoyat aniq vazifalarni amalga oshirish, barcha sharoitlar mavjudligidan foydalanib tamoil va metodlarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi. O‘rganish metodini yaratish mashqlarni qaytalanish sonini rivojlantirish, mashg‘ulotlarni tashkil qilish, rahbarlik qilish shaklini aniqlashdan iborat bo‘ladi.

1.3. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalarning qo‘llashning hozirgi holati.

Hozirgi davrda o‘qituvchilarning yuqori kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik mahoratga, yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga, mafkura borasida chuqur bilimlarga ega bo‘lishi, ta‘lim-tarbiya ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullardan samarali foydalanishi davr talabi hisoblanadi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma‘naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo‘lib yetishishini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo‘g‘ini sifatida pedagog xodimlarning yuqori ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishlash bo‘yicha yuksak mahoratga ega bo‘lishlarini ta‘minlash yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi. Bu masalaga davlatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab jiddiy e‘tibor kelinmoqda. Buni yurtboshimiz I.A.Karimovning quyidagi

fikrlarida yaqqol ifoda etilgan: “Maktab, ta’lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo’lishi Asosiy qonuniyatimizda belgilab qo’yilgan. Shu bilan birga, keng jamoatchilik, butun xalqismizning ishtiroki va qo’llab quvvatlashini talab qiladigan umumiy masaladir”.⁷

Hozirda har bir maktabda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifa bo’lib turibdi. Buning uchun har bir o’qituvchi o’z fanini o’qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o’rganib borishi orqali o’z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma’lum. Bu haqda Prezidentimizning quyidagi so’zlari ibratlidir: “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim-tarbiya olishiga bog’liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko’rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizning mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo’lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim-tarbiya ishini uyg’un holda olib borishni talab etadi”⁸

Yuqorida aytganimizdek, ta’lim oldiga qo’yiladigan talablar nihoyatda ulkan. Ta’lim jarayoniga ilg’or zamonaviy texnologiyalarni qo’llamasdan turib bu talablarni bajarish amri mahol. Biz jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasini o’rganish uchun bir guruh jismoniy tarbiya o’qituvchilariga (ja’mi 20 o’qituvchi qatnashdi) quyidagi savollar bilan murojaat qildik: Ta’limning zamonaviy texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?

1. Siz o’z darslaringizda ta’limning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanasizmi?

2. An’anaviy ta’lim bilan pedagogik texnologiyalar asosida o’tadigan darslar o’rtasidagi farqni ayting.

3. Interaktiv metodlarni qanday tushunasiz? Misollar keltiring.
4. Zamonaviy ta'lim metodlarini bilasizmi va uni amalda joriy qilasizmi?

Javoblarni quyidagi mezonlar asosida baholadik:

1. Zamonaviy texnologiyalarni yaxshi tushungan, o'z darslarida qo'llayotgan, uning an'anaviy ta'limdan yaxshi farqlay biladigan va interaktiv metodlarni bilgan bo'lsa "juda yaxshi";

2. Zamonaviy texnologiyalar haqida tushunchaga ega, undan o'z tajribasida foydalanayotgan va uning an'anaviy ta'limdan farqini bilgan va interaktiv metodlardan ba'zilarini biladigan bo'lsa "yaxshi";

3. Zamonaviy texnologiyalarni tushunadi, lekin undan ba'zan foydalanadi interaktiv metodlarni yaxshi bilmaydigan bo'lsa "o'rta".

4. Zamonaviy texnologiyalarni bilmaydi va undan foydalanmadi, ba'zan interaktiv metodlardan foydalanadi "yomon". Ta'limning an'anaviy metodlarini afzal deb biladi va umuman zamonaviy texnologiyalarga qiziqmaydi "juda yomon".

1. Javoblar tahlili quyidagi jadvalda ko'rsatilgan: jadval.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ta'limning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish darajasi: (So'ralganlarga nisbatan % hisobida)

T/t	"juda yaxshi";	"yaxshi"	"o'rta"	"yomon"	"juda yomon"
1	5	10	15	25	45
2	5	15	10	45	25
3	5	10	25	35	25
4	15	10	45	25	5

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki biz tadqiqot olib borgan maktablarning ko'pchiligida zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish sust kechmoqda. Zamonaviy texnologiyalar deganda ko'pchilik maktabda kompyuterlarning yo'qligidan shikoyat qiladilar. Shu bilan ta'limda zamonaviy

texnologiyalardan foydalanmayotganlari oqlamoqchi bo'ladilar. Vaholanki, ta'limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning 2 xil usuli bor.

Birinchisi kompyuter texnologiyalarisiz, darslarni loyihalashtirib kafolatlangan natijaga erishish bo'lsa;

Ikkinchisi, kompyuterlar yordamida darslarni tashkil etish. Demak kompyuterlarsiz ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish mumkin. Darsning xarakterli tomonlari, uning jismoniy tarbiyaning boshqa shakllaridan farqlanishi quyidagilardan iborat. Aniq ifodalangan, didaktik yo'lantirilganligi, ta'lim vazifasining hal etilishi bilan shartlanganligi. Predmetni o'rgatish va o'quvchilarni tarbiyalashga yo'naltirilgan o'qituvchining rahbarlik roli. O'quvchilar faoliyatini va yuk me'yorlarini qa'tiy o'rganish va belgilash. Shug'ullanuvchilarning doimiyliigi va ularning yoshining bir xilligi. Bunday o'rgatish jarayoni tashkil etish zamonaviy jismoniy tarbiya darsiga ma'lum talablarni qo'yadi.

1.O'qituvchi har bir darsni yuqori darajadagi g'oya bilan ta'minlanishi shart. Shuning uchun zamonaviy darsni kompleks vazifalar bilan rejalashtirish zarur. Vazifalar aniqlashtirilgan va differensiallashgan bulishi kerak. Bular alohida psixik va o'quvchilar rivojlanishining jismoniy xususiyatlari bilimlari asosida olib borilmog'i zarur.

2.Har bir dars avvalgi va keyin o'tiladigan darslar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, dars tizimini tashkil etishi kerak. O'qituvchilar yangi materialni o'rganishda oldin o'tilgan materialni qaytalash va mustaxkamlash hamda keyingi materialni o'zlashtirib olishga tayyorlash kerak. Bunday sistemalar o'quv vazifalarni hal etilishini ketma-ketligini ta'minlaydi.

3.Zamonaviy dars o'quvchilar faoliyatini yaxshi mustaqil tashkil etilganligi bilan farqlanadi. O'qituvchi ularni o'quv ishlarini bilim malakalar bilan ketma-ket qurollantiradi, mustaqil bilish va o'z-o'zini nazorat qilish, xarakat madaniyatini shakllanishga erishish, shular bilan birga muntazam jismoniy mashqlar mashg'ulotiga talabni tarbiyalab beradi.

4.Bular hammasi rangli ish intizomi asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi foydalanadigan, shug'ullanuvchilar faoliyatini tashkil etilishini har xilligi, manbalar, metodlar va usullar zamonaviy dars ko'rsatmaliligi hisoblanadi. Mashg'ulotlarni xech qachon bir xil shablonda tashkil etmaslik kerak.

5.Har bir darsni butun davomida hamma o'quvchilarni xarakat faoliyatiga eng qulay ravishda erishishlik samaradorlik sharti hisoblanadi.

6. O'qituvchi har bir darsda, bilimlarni nazorat qilish tizimi, o'quvchilar bilim va malakalarini, darsni har bir qismida belgilashi, o'rgatish jarayoni yakunida baholash va jismoniy sifatini rivojlantirishini mavjudligig ta'minlash zarur.

7.Darsni o'tish shartiga ko'p talablar qo'yiladi: o'quv-material, gigiyenik, estetik, iroda–psixologik va boshqalar. Zikir etilgan talabalar jismoniy tarbiyani umumiy va metodik prinsiplaridan kelib chiqadi va hamma sinflarda dars o'tilganda majburiy hisoblanadi.

II.BOB TADQIQOTNING VAZIFALARI, USLUBLARI VA PEDAGOGIK TAJRIBANI TASHKIL QILISH TARTIBI.

2.1. Tadqiqotning vazifalari.

Ishimizning mohiyatini yoritish va tadqiqotning bosh maqsadini hal etish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1) Ilmiy pedagogik adabiyotlar, tadqiqotlarni o'rganish orqali jismoniy tarbiya darslari jarayonida pedagogik texnologilarni joriy etishning nazariy asoslari va omillarini aniqlash;

2) Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etishni ilmiy tahlil etish;

3) Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilarni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlarini va uni faollashtirish omillarini, o'quvchilarning o'qish motivlari va ularni rivojlantirish yo'llarini tahlil etish;

2.2. Tadqiqot uslublari va qo'llash tartibi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish quyidagi ilmiy uslublar asosida amalga oshirildi:

- Ilmiy adabiyotlar o'rganish uslubi;
- Pedagogik kuzatuv uslublari;
- Anketa va savol javob metodi;
- Suhbat;
- Matematik statistika va umumlashtirish uslubi.

2.2.1 Ilmiy adabiyotlarni, uslubiy qo'llanmalar, me'yoriy va rejalashtiruvchi hujjatlarini o'rganish.

Adabiyotlarning tahlil qilishda ko'pgina murabbiy va mutaxassislarni fikrlar va ilmiy ishlari o'rganilib chiqildi. Ko'pgina adabiyotlardan jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari ko'rib chiqildi. Pedagogik texnologiyaga doir umumiy va maxsus ilmiy adabiyotlar, ulardagi

ma'lumotlar, fikr-mulohazalar, yondoshuvlar mohiyati o'rganildi. Uslubiy qo'llanmalar, me'yoriy va rejalashtiruv hujjatlari tahlil etildi.

2.2.2. Pedagogik kuzatuv uslublari.

Pedagogik kuzatuvda jismoniy tarbiya o'qituvchilari va ularning ish faoliyatlari kuzatildi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari dars jarayonida qo'llagan samarali pedagogik texnologiyalarva ularning samaradorligi kuzatildi va taxlil qilindi.

2.2.4. Pedagogik tajriba.

2015-2016 yillarda Jismoniy tarbiya darslarini samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ustidan pedagogik kuzatuvlar olib borildi.

2.2.5. Matematik statistik uslublar.

Tadqiqot davomida qayd etilgan individual natijalar umumlashtirildi. Jumladan quyidagi statistik ko'rsatgichlar miqdori aniqlandi (53):

- $\bar{x}$ - o'rtacha arifmetik ko'rsatgich;
- δ - o'rtacha kvadratik og'ish;
- v - variatsiya koeffitsenti (%)
- t - student mezoni;
- P - ko'rsatgichlar farqining ishonchliligi.

2.3. Tadqiqotning o'tkazilishi

Bitiruv ishda jismoniy tarbiya darslari o'rganilib tahlil qilindi. 2015-2016 o'quv yilida Yangibozor tumani maktablarida 30-40 dan ortiq jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlari tekshirib ko'rildi va o'rganildi. Jismoniy tarbiya dars jarayonida pedagogik texnologiyadan foydalanishning samaradorligi aniqlandi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan dars samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha suhbatlar o'tkazildi.

III.BOB. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING SHAKLLARI VA METODIKASI.

3.1. Ilmiy pedagogik adabiyotlar, tadqiqotlarni o'rganish orqali jismoniy tarbiya darslari jarayonida pedagogik texnologilarni joriy etishning nazariy asoslari va omillarini aniqlash

Erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarini pedagogik texnologiya "rels"iga o'tkazishni taqozo etadi. Albatta, bu jarayon oson kechmaydi: bugun ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o'qitish tizimini qat'iyon ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish h kerak. Aslida ham ijtimoiy tajriba elementlari – bilim, ko'nikma, ijodiy faoliyat, ob'ektiv borliqqa munosabatlar – pedagogik jarayon mahshulidir va ma'lum pedagogik tizim doirasida shakllantiriladi. Pedagogik texnologiya esa amaliyotga joriy etilayotgan pedagogik tizim loyihasidir. Didaktik jarayonning motivatsion bosqichhi o'quvchilarning bilish faoliyatiga kirib ketishini tezlastirishga imkon beradi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

1. Har bir o'quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish.
2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb sezsini, unga bo'lgan e'tiborni to'ysin.
3. Bolaga tazyiq o'tkazmaslik hamda uning kamchiligini bo'rttirmaslik; bilimlarni o'zlashtirmasligi, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni bolaning shaxsiyatiga zarar yetkazmaydigan tarzda bartaraf etish;
4. Ta'limda "muvaffaqiyat muhitini" tashkil etish, bolaga o'qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam berish, uning o'z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirish. O'quvchiga atrofdagilarning har biri o'zi kabi ekanligini anglatish, unda jamoaga aloqadorlik hissini rivojlantirish.

5. O'quvchining hurmati va ishonchini qozonish, o'ziga ham shaxs nuqtai nazaridan qarash. Hozirda turli hayot sharoitlarida yashayotgan bolalar shu hayotning ta'sirida nimalarni o'rganish imkoniga ega bo'lishlari mumkinligi haqida pedagog Doroti Dou Noltning quyidagi fikrlari e'tiborga loyiq: "Bolalar o'zlari yashayotgan hayotdan nimalarni o'rganishadi?"

Agar bola tanqid bilan yashasa, u ayblashni o'rganadi.

Agar bola adovat bilan yashasa, u urishishni o'rganadi.

Agar bola qo'rquvda yashasa, u qo'rqqulikni o'rganadi.

Agar bola afsusda yashasa, u afsuslanishni o'rganadi.

Agar bolaning ustidan ko'p kulishsa, uyatchan bo'lishni o'rganadi.

Agar bola qiziqish bilan yashasa, u havas qilishni o'rganadi.

Agar bola uyat bilan yashasa, u aybdorlik hissini o'rganadi.

Agar bola qo'llab-quvvatlash bilan yashasa, u o'ziga ishonishni o'rganadi.

Agar bola bag'rikenglikda yashasa, u sabrli bo'lishni o'rganadi.

Agar bola maqtov bilan yashasa, u qadrlashni o'rganadi.

Agar bola tan olish bilan yashasa, sevishni o'rganadi.

Agar bola rostgo'ylik va adolatda yashasa, u haqiqat va adolat nimaligini o'rganadi.

Agar bola havfsizlikda yashasa, u o'ziga va atrofdagilarga ishonadi.

Agar bola do'stlik bilan yashasa, u yer yuzi yashash uchun ajoyib joy ekanligini anglaydi.

Agar bola osoyishtalik bilan yashasangiz, sizning farzandingiz ham osoyishtalikda yashaydi.

Sizning farzandingiz qanday yashamoqda?" Umumiy o'rta ta'lim muassasasining bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish faoliyatida bolalarning kognitiv (aqliy), kommunikativ (nutq-muloqotchanlik), ijtimoiy-hissiy va jismoniy-motor rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta'minlash judamuhimdir. Bolaning rivojlanishiga sharoit nafaqat sinf xonalarida, balki muassasaga kirishda, yo'laklarda, sport va dam olish maydonchalarida ham yaratilgan bo'lishi shart. Xona va bino bu bolaning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan ichki omildir, sport,

dam olish va o'yin maydonchalari, maktab va boshqa ta'lim muassasasining xududi tashqi omillar bo'lib hizmat qiladi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi muhit ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning yoshi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini to'liq hisobga olgan xoldagi eng qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Unga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: Bolaning salomatligini saqlash omillari: toza havo, toza joy, normal harorat va yorug'lik ta'minlanadigan bino va o'quv xonalari. Maktabning bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joy bo'lishini ta'minlash. Bolalarning harakat, kashf qilish va tajriba qilishlariga rag'bat ko'rsatish, ya'ni maktab xududining barcha joylarida bunga imkon bo'lsin. Masalan, sport, dam olish va o'yin maydonchasida jihozlarning yetarli bo'lishi; koridorda turli o'simliklarning o'sishini kuzatish, xonada o'quv fanlariga doir ma'lumotlar, kutubxonada turli kitoblar bo'lishi va shu kabilar. Bolalarning o'zlari ishlagan barcha narsalar, ashyo va qo'llanmalar bola ko'ra oladigan, bo'yi yetadigan darajadagi masofa va balandlikda joylashgan bo'lishi. Bolalar o'rtasida hamkorlik va muloqotga rag'bat bildirish, ya'ni darsda kichik guruh va juft bo'lib ishlari, darsdan tashqari vaqtda o'yin o'ynashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak. Bolalarda maktabga tegishlilik hissi, xavfsizlik va erkinlik hissi bo'lishi. Turli madaniyatlar mavjudligini his qildirish. Sinf xonasi bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan alohida mavzular bo'yicha qismlarga bo'lingan va shu har bir qismlar o'z mavzulari bo'yicha bola uchun kerakli va qiziqarli bo'lgan ashyo, jihozlar, o'yinchoqlar, konstruksiyalar, belgilar, raqamlar, so'zlar va h.k. bilan jihozlanganligi. Mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakalana olishiga to'siq bo'lmaydigan holda joylashtirilgan bo'lishi, bola o'ziga tegishli mebelni bema'lol harakatlantira oladigan va nogironlarga mos mebel ham bo'lishi, shuningdek, o'qituvchi uchun ham qulay bo'lishi kerak. Bolaning idrok etish qobiliyatini rivojlantiruvchi va ijod qilishga undovchi turli shakl va rangdagi materiallar bilan ta'minlash. Bolalar ko'rishi va tanishishi uchun narsalar va ma'lumotlarni iloji boricha bitta joyga juda ko'p joylashtirmaslik, bu bolaning ularni ajratib olishiga halaqit beradi. Bolaga erkin tanlash imkonini berish va

mustaqil qaror qabul qilishga undash. O'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yoram berish. Kundalik qilinadigan ishlarni biror jadval shaklida so'zlar hamda belgilar bilan tasvirlash, uni bola ko'ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo'yish. Ota-onalar va maktab o'rtasida iliq munosabatlarni shakllantiruvchi muloqot o'rnatishga imkon beruvchi muhit yaratish(15,16,17).

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim amalga oshiriladigan ayrim noana'naviy dars shakllari:

Sho'ng'ish darsi – ma'lum bilimlarni egallash uchun eng qulay muhitda bo'lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni faol o'rganish mashqlaridan iborat.

Musobaqa darsi – o'quvchilarning o'zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Konsul'tatsiya darsi – dars jarayonida o'quvchilarning o'zaro hamda o'qituvchining konsul'tatsiyalarini tashkil etish orqali darsni o'zlashtirish mashqi.

Ijod darsi – o'quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Sinov darsi – o'quvchilarning o'zlashtirishini turli shakllarda sinash tashkil qilinadigan dars.

Shubha bildirish darsi – dars mavzusi bo'yicha qoidalar, xulosalarni agar noto'g'ri deb hisoblansa, nimalar bo'lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o'tkazish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi. Ijodiy hisobotlar darsi – o'quvchilarning ayrim mavzular bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti.

Umumlashtirish darsi – ilgari o'tilgan mavzular bo'yicha olingan bilimlarini umumlashtirish mashqlarini o'tkazish darsi.

Ilmiy-fantastika darsi – o'quvchilarning o'rgangan bilimlari asosida ijodiy hayol, taxminlar o'ylab topishlari mashqini o'tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

Haqiqatni izlash darsi – dars mavzuga doir ayrim masalalar yuzasidan o'quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishini tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o'zlashtirishlarini ta'minlash darsi.

“Paradokslar” darsi – o‘quvchilarning faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida o‘rganilayotgan mavzuni har turli “paradokslarga” bog‘lab bayon qilish hamda tegishli tahlillar o‘tkazish asosida to‘g‘ri xulosalarni aniqlash darsi.

Seminar darsi – yangi dars mavzusiga doir savollar bo‘yicha o‘quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to‘g‘risida ma‘lumotlarni tinglash orqali sinfdagi barcha o‘quvchilar darsni o‘zlashtirishlarini va bilimlarni mustahkamlashni ta‘minlash darsi.

Ekskursiya darsi – o‘quvchilarni turli obyektlar: muzey, ziyoratgoh, korxona, ustaxona, tabiat, ilmiy muassasa, kollej, litsey va boshqalar bilan tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog‘lash va kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta‘minlanadi. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini ta‘lim-tarbiya jarayonida hisobga olish, ularning shaxsiy sifatlarini bilish, tahlil qilishga yakka tartibda yondashishda hozirgi yosh psixologiyasi va pedagogikasining qoidalari va talablaridan kelib chiqiladi. Bunda o‘quvchilarning tayyorgarliklari, qiziqishlari va fanlarni turlicha o‘zlashtirishlari bilan farqlanishini hisobga olish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda o‘qituvchilarning ham bir-biridan o‘qitish uslubi, o‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish bo‘yicha farqlanishini hisobga olgan holda har bir o‘qituvchining optimal natijani aniq bir vaqt mobaynida olishga, ya‘ni o‘quvchilarning ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtirishlariga erishish bo‘yicha individual yondashuvlari mavjud. O‘quvchilarning shaxsiy sifatlarini hisobga olish asosida shu sifatlarini ijobiylashtirish va rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun darsda o‘quvchilarga mustaqil vazifalar berish, ularning mustaqil xulosalar chiqarishlarini, bir-birlaridan o‘rganishlarini tashkil qilish, ularning o‘qishlari uchun qulay muhit yaratishga alohida e‘tibor berish talab qilinadi. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim-o‘quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta‘lim texnologiyasida har bir o‘quvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega. O‘quvchi-o‘qituvchi hamda o‘quvchi-o‘quvchi hamkorligi ko‘zda tutilgan ijobiy natijalarni beradi. Dars mazmunining hamma elementlari darsni tashkiliy

jarayonida o'qituvchi tomonidan tuzilishi kerak. Darsni tashkil etish uchun organizm mavjudligini biologik qonuniyati, uni ish qobiliyatini aniqlash va o'quv tarbiyaviy jarayoni mantiqligi asos hisoblanadi. Ish qobiliyatchanlikni to'rta xonasi mavjud: start oldi xolatini zonasi va vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotish zonasi. O'quv tarbiya jarayonining mantiqi quyidagilarni talab etadi: shug'ullanuvchilar faoliyatiga bilishni izchillik bilan kiritish;

1. zaruriy jismoniy ish qobiliyatiga izchillik bilan erishish;
2. ma'lum mashg'ulotda belgilangan ta'lim, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish vazifalarini izchillik bilan xal etish;
3. o'quvchilarni keyingi muvaffaqiyatli faoliyatlariga yordam beruvchi organizmni ishdan so'ngi yaxshi xolatini ta'minlash.

- Bular darsni uch qismga bo'lishi sharti bilan bog'liq: tayyorlov, asosiy va yakuniy. Darsni uch qismga bo'linishi, u o'z bir butunligini yo'qotadi degan gap emas. Aksincha, har bir qism oldindagilardan kelib chiqib keyingilarni mantiqiy to'ldirib borishi kerak. Har bir qism o'z vazifasini xal eta borib, darsning oxirgi natijasini samaradorligiga olib kelishi kerak. Shuning uchun alohida qismlarga ajratilgan vaqt va ularning aniq mazmuni, ko'proq o'zgaruvchan, chunki ular ko'pgina omillarga bog'liq: ma'lum darsda shug'ullanuvchilarning aniq xolatidan, ularning xususiyatlari, mashg'ulotning vazifasi, tanlab olingan mashqlarning o'ziga xosligi, ishning tashqi sharoiti va boshqalar. Darsni qismlarga bo'lgandan so'ng, darsni tashkil etilishining ikkinchi etapi boshlanadi – jismoniy mashqlarni aniqlash (va ularni ketma-ketligi) darsning umumiy va qism vazifalarini yaxshi xal etish imkoni yaratiladi. O'qituvchi taxminiy bajarilagn mashqlar orqali, keyingi mashqlarni yaxshi, ijobiy bajarilishi uchun intilishi zarur. Masalan, murakkab koordinatsiyali mashqlarni o'rganish darsning boshlarida qo'yiladi. Ularni takomillashtirib borish orqali darsning oxirida ham bajarish mumkin. Tezlikni rivojlantirish uchun berilgan mashqlar, chidamlilik mashqlaridan so'ng juda past samara beradi. Bir darsning o'zida salbiy samara beradi. Bir darsning o'zida salbiy ko'chishlikka olib keladigan mashqlarni berish maqsadga muvofiq emas. Darsning tizimining xal etuvchi uchuinchi etapi, dars o'tish

jarayonida foydalaniladigan, pedagog faoliyatini va shug'ullanuvchilarning har bir pedagog vazifalarni xal etishda o'zaro aloqasini aniqlashdan iborat. Bunga gruppalarni tashkil etish, ularga vazifalarni qo'yish, mashg'ulot o'rnini almashtirish tartibi, snaryadlarni o'rnatish, asbob-anjomlarni taqsimlash va to'plash, mavjud darslarda foydalanilgan xarakterlar. Shunday qilib, har bir dars mazmuniy, metodik va tashkiliy elementlarning birligidan iborat. Bu birlikni buzishlik, aytilgan elementlarning ahamiyatini tushinmaslik yoki tan olmaslik dars samaradorligini tez pasayishiga olib keladi, belgilangan vazifalarni xal etish imkonini shubxa ostida qoldiradi. Maktabda pedagogik jamoa yoki metod birlashmalar miqyosida o'qituvchilarning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda o'quvchi shaxsini o'rganish yo'nalishlari, muloqot usullari, darsda o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari, fanlarni turlicha o'zlashtirishdagi farqlarni hisobga olish, qulay muhit yaratish, o'quvchilarning o'zlashtirishlariga erishish va boshqa masalalar bo'yicha nazariy, metodik va amaliy tajribalar bilan tanishish, o'rganish, ommalashtirish maqsadida amaliy mashg'ulotlarni vaqti-vaqti bilan o'tkazib borish lozim. Bu mashg'ulotni mavjud sharoit va imkoniyatlarga muvofiq bahs-munozara, trening, ishchanlik o'yini yoki seminar kabi shakllardan birortasi bo'yicha o'tkazish tavsiya qilinadi(9,11,12).

3.2. Jismoniy tarbiya darslarini loyihalashtirish texnologiyasi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati qo'yilgan maqsadga o'qituvchi va o'quvchining hamkorligida tizimli yondashuv asosida kafolatlangan natijaga erishishdir. Bunda o'qituvchi mahorati alohida o'rin tutadi. O'qituvchi mahorati darsni aniq rejalashtirishda o'z aksini topadi. Darsni shunday rejalashtirish lozimki unda nima qilinishi mo'ljallanayotganligi aniq o'z aksini topsin va boshqacha reja tuzish mumkinligiga o'rin qolmasin. Ba'zan yosh o'qituvchilar faoliyatida darsni rejalashtirish sohasida xatolarga yo'l qo'yilganligining guvohi bo'lamiz.

Bunday xatolarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

1.Maqsadda aniqlikning yo'qligi. Ya'ni o'quvchilar aslida nima qilishlari va nimani o'rganishlari aniq belgilanmaydi.

2. Ta'lim maqsadining talablari darsning natijasi bilan to'g'ri kelmagan hollar bo'ladi.

3. O'rganish uchun tavsiya qilingan materiallar darsning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.

4. O'qituvchi berayotgan yo'llanmalar o'quvchining darsda bilimlarni samarali o'rganishini ta'minlamaydi.

5. Dars rejasida ko'rsatilgan o'quvchilarning hatti-harakatlari dars maqsadini amalga oshirishning samarali vositasi bo'la olmaydi. Bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun har bir tuzilgan reja qayta ko'rib chiqilishi va xatolarni bartaraf etish ustida ishlanishi lozim. Jismoniy tarbiya darslarida ta'lim jarayonini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi, shunga doir metodik maslahatlar hali pedagogik va metodik adabiyotlarda to'liq o'z aksini topmayotir.

O'qituvchi har bir darsni yaxlit holda ko'ra bilishi va uni tasavvur qilishi uchun loyihalashtirib olishi lozim. Darsni loyihalashtirishda texnologik xaritani tuzib olish muhim ahamiyatga ega. Chunki texnologik xarita har bir o'quv predmetining xususiyatlari, o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojilardan kelib chiqqan holda tuziladi. Texnologik xarita har bir o'qituvchining o'z imkoniyatlari, darslik va o'quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda turlicha tuzilishi mumkin. Mashg'ulotning muvaffaqiyati unga tayyorgarlik ko'rish jarayonida aniqlanadi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, aniq xolatlar har doim hisobga olinmasligi mumkin, aks holda o'z navbatida darsning borish jarayonida uni qayta qurish talab etiladi. Darsda yuz bergan xolatlarni ijodiy xal etishda pedagogik bilim, amaliy tajriba, mahorat imkon beradi(20,21,22).

Har bir darsning o'tilishini alohida ko'rib chiqamiz.

Darsning tayyorlov qismi. Darsning tayyorlov qismi shunday o'tkazilishi kerak: darsga qo'yilgan ma'lum vazifalarni ongili bajarish uchun o'quvchilarni uyushtirishimiz va psixologik tayyorgarlikni vujudga keltirish zarur;

- o'quvchilar ma'lum xarakterdagi mashqlarni o'zlashtirib olishga tayyorlash(o'yinli, yengil atletikali);

- o'quvchilar organizmini ko'proq jadalli, shiddatli, murakkab mashqlarni bajarishga funksional tayyorlash;
- qomatni shakllantirishga yordam berish, yengillikni tarbiyalash, xarakat faoliyati bilan boshqara bilishlik.

Demak tayyorlov qism darsning umumiy vazifalarini xal etish uchun bog'liq bo'lgan eng yaxshi sharoit bilan ta'minlash vazifalarini xal etadi va bir vaqtning o'zida nisbatan mustaqil ta'lim va sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega bo'ladi. Dars sinfning umumiy saflanishi va navbatchi o'quvchini dars boshlanishga tayyor ekanligi haqidagi raport bilan boshlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning navbatchisi raport berishi shart emas. Navbatchi o'quvchidan raport qabul qilishlik dastur bo'yicha uchinchi sinf dan boshlanadi. Ammo bolalarni birinchi bor raport bilan tanishtirganda, uning tarbiyaviy ahamiyati ko'zda tutib, ka'tiyrof talab etish zarur. Salomlashgandan so'ng navbatchi sinfning o'ng qanotiga turadi. Bu har bir o'quvchiga yiliga ikki marotabadan safni saflash imkonini beradi. Saf mashqlarini o'rganish o'quvchilarning faolligini oshiradi, saflanish va qayta saflanish hamda saf burilishlari haqida malaka hosil bo'ladi. O'quvchi saflanishdagi bir xillikdan (shablon qochishi, joylash va joylarini o'zgartirish usullari xilma-xil tarzda tashkil etish kerak.

Kichik sinflarda boshlang'ich sinf o'qituvchisi amalga oshiradi, o'rta va yuqori sinflarda –navbatchi o'quvchi o'qituvchi bilan kelishgan xolda bajaradi. Dars boshlanguncha o'qituvchi mashg'ulot joyiga kelguncha sinq saflangan va salomlashishga tayyor turgan bo'lishi kerak.

Salomlashishlik – darsni tayyorlov qismining zaruriy didaktikasi.

U o'zaro salomatlik istaydigan va muloyim, xushmuomala, odobli, o'zaro munosabatni tarbiyalash va keyingi faoliyatlarda muvaffaqiyatli ta'minlaydigan bo'lishi kerak. Birinchi darsda sinf bilan salomlashgandan so'ng o'quvchilar tarkibi bilan tanishish maqsadida ro'yxatni o'qib chiqadi, keyingi darslarda ro'yxatni o'qish shart emas, vaqtni io'tisord qilish maqsadida, dars davomida yoki yakunlov qismida navbatchi orqali yo'qlama qilish maqsadga muvofiq. So'ngra

o'qituvchi dars vazifasini e'lon qiladi. Ularning mohiyati darsning asosiy qismida aniqlanishi mumkin. Tayyorlov qismining manbai saflanish va qayta saflanish iborat; yengil yurish, tez, baland va prujinasimon qadamlar, tovondan oyoq uchiga o'tib, yugurish va sakrash har xil usullari, sakrab irg'ib borish; raqs mashqlari, to'siqlardan oshib o'tish, diqqatga mashqlar, predmetsiz umumiy rivojlantirish mashqlari, predmetli va snaryadlarda (gimnastik devorcha, gimnastik skameyka), xarakatda va o'rinda, juft –juft bo'lib xarakatli o'yinlar orqali. Darsning tayyorlov qismiga uchta izchil bo'limni ajratish mumkin: umumiy, maxsus va yakka. Umumiy asosan sog'lomlashtirish va funksional tayyergarlikni xal etadi: maxsus esa ukuvchilarni ma'lum tartibga va xarakterga ega bulgan mashklarni uzlashtirib olishga tayyerlaydi; aloxida (yakka) uchun kuyilgan vazifalarni yaxshi xal etishga yordam beruvchi ukituvchi tomonidan tavsiya etilgan va mustakil tanlab olingan mashklar uchun bush vakt ajratiladi. Umumiy rivojlantirish mashklarini bajarish uchun xilma-xil saflash shakllari ishlatiladi, kengaytirilgan (yozilgan) va tor saflarda, doirada (ikki, uch doirada), kvadratda, uchburchakda yoy va boshqalar. Agar zalda snaryadlar o'rnatilgan bo'lsa, o'quvchilar o'zlariga mustaqil joy tanlaydilar. Tanlangan joy mashq bajarishi, o'quvchilarning yurishi uchun qulay va o'rtoqlariga xalaqit bermaydigan bo'lishi kerak. Tanlab olingan mashqlar qisqa vaqt ichida bir necha vazifalarning samaradorlik bilan xal etish imkonini berishi kerak. Ya'ni asosiy qismda zaruriyati bo'ladigan xarakatlarga asos solinishi kerak. Bolalarni saf qadam faoliyatlariga qa'tiy talabchanlikni qo'yish kerak. Bu talablarni bajarilishi o'qituvchi tomonidan baholanadi va yakuniy baho chiqarishda hisobga olinadi. Xar bir o'qituvchining shiori: "Avvalgi o'tilgan mashqni o'zlashtirib olmasdan bir qadam olg'a bosmaslik"dan iborat bo'lishi kerak. Qator umumiy rivojlantirish mashqlarini bajarishda uni sinxronligiga (bir xillik) erishmoq zarur. Mashqlarni bajarishda o'quvchilarni boshqarish usuli diqqatiga sazovordir. Ular xilma-xil va samarador bo'lishi kerak. O'qituvchilar hisob sanash, qarsak; o'quvchilarning o'zini mustaqil sanashi (past ovoz bilan), musiqa orqali, topshiriq bo'yicha natijaga, musobaqa elementlari bilan, o'qituvchi orkasidan potok bilan bajarishdan foydalanadilar. Boshqarishni xar qanday usulida o'qituvchi tanbex

berishi, xatolarini to'g'rilashi, o'quvchilarga dalda berish imkoniga ega bo'lishi kerak. Yuqori sinflarda darslar uslubshunoslik bo'yicha trenirovka (mashqlanish) mashg'ulotlariga yaqinlashtirib tayyorlov qismining intensivligini oshirish maqsadga muvofiq. Tayyorlov qismini davom etishi -10-12 min. Uni muvaffaqiyatli tamomlash uchun komandalar aniq, qisqa termin jihatidan to'g'ri bo'lishi kerak.

Darsning asosiy qismi. Asosiy qismining vazifalari quyidagilardan iborat: -ma'lum dars rejasida ko'rsatilgan jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarni bilim, bajara bilishlik va malaka hosil qilish; -o'quvchilarni mustaqil jismoniy mashqlarini bajarishga o'rgatish; -murakkab jismoniy mashqlarni bajarish jarayonida shug'ullanuvchilarni qomatini shakllantirish; -jismoniy sifatlarni tarbiyalash; -shug'ullanuvchilarni ruhiy va estetik tarbiyalanishiga, irodasini mustaxkamlashga yordam beradi; o'quvchilarning sport yutuqlari darajasini oshirish; Bu vazifalar asosiy qismini o'tkazishning xususiyatlarini belgilaydi;

Birinchi navbatda o'qituvchi o'quvchilarni ijodkorligini rivojlantirish uchun vaziyatni vujudga keltirishga intilmogi zarur. U doimo tashabbuskorlikni, aktivlikni, o'zaro o'rgatish, o'zaro rag'batlantirib borib, bolalarni yo'l qo'ygan xatolari bo'yicha xisobotini eshitib borishi kerak(7,8,9).

Asosiy qismda o'qituvchi jismoniy yutuqlarni darajasini yetarli darajadi mashqlarni qaytarib sonini 15-20 chiqarishi o'rganilayotganlarini 30-40 oshirishi kerak. Buning uchun imkoniyatni bo'lgan sharoit material bazadan foydalanishi zarur.

Toza xavoda darsni o'tayotganda shuni yodda tutish kerakki, sovuq havoda uzoq tushuntirishni cheklab, qisqa ko'rsatish, jadal mashqlar bilan ta'minlash zarur. Issiq havoda organizmni o'ta qizishdan saqlab soyada o'tish, o'quvchilar xolatiga diqqat bilan e'tibor berib jadal mashqlarni jadallashmagan mashqlar bilan almashtirib borish zarur. O'rta Osiyo Respublikalarining sharoitida yil davomida toza havoda dars o'tish mumkin. Buning uchun kompleks programmani gimnastika bo'limini xoli etish uchun ochiq maydonda gimnastik snaryadlar mavjud bo'lishi shart.

Lekin ob-havo tez o'zgaruvchan bo'lganligi sababli ikkinchi chorakning dekabr oyi, hamda uchinchi chorakning yanvar, fevral oyining birinchi o'n kunligida ba'zi bir darslarni (asosan gimnastika bo'limini) sport zalga rejalashtirish maqsadga muvofiqdir.

Snaryadlarni o'rnatish va ularni yig'ishtirib olishlik, dars davomida amalga oshirilishi kerak. Bu yerda faqat keyingi darsga xalaqit beradigan snaryadlarni yig'ishtirish mumkin. Snaryadlarni o'rnatish, asbob-anjomlarni tayyorlash navbatchi va vaqtincha darsdan ozod qilinganlar tomonidan olib borilishi tavsiya etiladi. O'qituvchi snaryadlarni o'rnatish va ularni yig'ishtirib olishda musobaqa tashkil etish mumkin. Mashg'ulot joyida maxsus taxtada o'quvchilar faoliyatini tartibga soluvchi o'quv kartochkalarni qo'yish mumkin.

Darsning asosiy qismida darsga qo'yilgan vazifalarni soniga qarab sinfdagi o'quvchilar soni, sharoit, imkoniyat albatta xisobga olinishi kerak. Darsni motor zichligini oshirishga doimo xarakat qilishlik talab etiladi.

Asosiy qismning samaradorligini asosiy sharti edi qulay tushuntirish xolatni ta'minlashdan iborat. Ijobiy tushkunlik faqat o'rgatishga ta'sir etibgina qolmasdan, jismoniy sifatlari xam muvafaqiyatli takomillashadi. Tushkinlikka o'yinlar, musobaqa, texnik mag'balarni, ko'rgazmali qurollarni qo'llash orqali erishiladi. Bu rejada bebaxo yordamni musobaqa beradi. Bolalar mashqlarni bir maromda, me'yorida, amplitudada bajarishga o'rganiladi.

Xar bir dars o'quvchilarni jismoniy sifatlarini tarbiyalashga yordam berishi kerak. Ularni rivojlanishini o'rganish jarayonida ajratib bo'lmaydi. O'quvchi, u yoki bu jismoniy mashqni o'zlashtirib olib bir vaqtning o'zida jismoniy sifatlarini xam tivojlantirib boradi. Ammo bu jarayon tabiiy bo'lmasligi kerak, shuni yodda tutish kerakki, xar qanday sifatni unga ta'luqli bo'lmagan mashqlarsiz tarbiyalash mumkin emas. Faqat o'quvchiga doimiy talabni oshirib borishlik, uni jismoniy rivojlanishiga yordam beradi(9,10,11).

Biroq zaruriy bo'lgan tezlik, kuch, chidamlilik, epchillik, bukuluvchanlik darajasiga ega bo'lishlik yetarli emas. Darsning oxirgi qismida beriladigan maxsus mashqlar zarur. Shu maqsadda doiraviy mashqlanish keng qo'llaniladi.

Sifatli tarbiyalash bo'yicha ishlarni natijaga erishish zaruriyati nuqtai nazaridan qarab, jismoniy mashqlar texnikasini o'zlashtirib olish, sharti sifatida qaramoq zarur. Masalan sakrashda yaxshi natijalarga erishish uchun yuqori darajada tezlik-kuch sifati va bukuluvchanlik zarur.

Asosiy qismda qo'llaniladigan jismoniy masho'qlar kuch va chidamlilik sifatini tarbiyalangandagi ijobiy ta'sir etadi, yakunlovchi qismdagi mashqlar muskullarni bo'shashtirishga va tolish orqali cho'zilishga olib kelib o'quvchilarni bukuluvchanligini takomillashtirish imkonini beradi. Chidamlilik uzoq masofalarga yugirishdan foydalanilgan darslarda eng yaxshi tarbiyalanadi, kuchni tarbiyalash uchun eng yaxshi sharoit gimnastik mashqlarni qo'llaganda, epchillik sport va xarakatli o'yinlar jarayonida vujudga keladi.

Mashg'ulotlarni asosiy qismini samaradorligining zaruriy sharti— o'quvchilar tomonidan topshirish mashqlarni to'g'ri bajarilishini o'qituvchi tomonidan diqqat bilan kuzatilishi va ularni baxolashdan iborat.

Darsni motor zichligini qisman pasayib ketishidan qo'rqmasdan pedagoglar yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab, zaruriy tuzatishni kiritib borishi kerak. Chunki zichlik birdan-bir maqsad etishni birdan-bir sharti.

Darsni yakunlov qismi

Darsni yakunlov qismi jismoniy va xayajonli qo'zg'alishlarni darajasini asta-sekinlik bilan tushirish uchun qo'llaniladi. Ammo bu bilan yakunlov qismni tugallanmaydi. Yakunlov qismining bosh vazifasi darsga yakun yasash, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini baholash. Darsga yakun yasash o'qituvchi o'quvchilarni kelgusi darsga mo'ljallaydi, uyga vazifa beradi, avvalgilarni tekshiradi, baho qo'yadi.

Uyga vazifani darsni xoxlagan qismida berish mumkin, ammo uni darsni yakunlov qismida albatta takrorlash zarur. Uyga berilgan vazifani ham darsni xoxlagan qismida berish mumkin. Uni tekshirish yakka tartibda va frontal bo'lishi mumkin.

Shunday qilib yakunlov qismni erishilgan va oldinda turgan ishlar orasida alohidagi aloqa laxzasi deb qarash zarur.

3.3. Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalar

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stiradi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik yaratish, yangilikdir. Demak an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi, ularningn ayrim asosiy belgilarini ko'rib chiqamiz.

Hozirgi interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyasiga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi – har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishni ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir

etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi: o'qituvchilardan interfaol mashg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

- o'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;
- o'quv xonasida interfaol mashg'ulot uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish;

- ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;

- sanitariya-gigiyena me'yorlari buzilishining oldini olish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;
- davomatni va intizomni saqlash;
- nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

- DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;

- interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;
- interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;

- mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;

- zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;
- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;

- interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun avvalo darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur.

Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko'proq interaktiv metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi.

(Interaktiv so'zi inglizcha – interaction, ya'ni, inter – aro, o'zaro, act – harakat ma'nosini anglatadi.) Interaktiv usullar – bu o'zaro harakat, ya'ni hamkorlik asosida o'qitish demakdir. Interaktiv usullarning 4 asosiy turi mavjud. Bular:

- kognitiv usullar;
- o'yinlar, eksperimental faoliyat;
- ishbilarmonlik o'yinlari, modellashtirish;
- amaliyot orqali o'qitish, bevosita faoliyat.

Interaktiv usullarning barchasida ham o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Masalan, biror bir mavzuni o'rgatishda uni **modellashtirish** qismida o'qituvchi o'quvchilarga modelni namoyish qilish oldida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishi mumkin. Ya'ni o'quvchilar qo'yilgan muammoni qanday tushunishlari va ko'nikmani qanday egallashlari mumkinligi ulardan so'ralib, ularning fikrlari umumlashtiriladi. Bunda o'quvchilar fikri mutlaqo tanqid qilinmaydi. **Amaliy boshqaruv** qismida o'qituvchi “**Hamrohingga o'rgat**” metodidan foydalanishi mumkin. Bu metod darsni optimal tashkil etishga imkoniyat yaratib, o'quvchilarning o'z faoliyatini tanqidiy nazorat qilish va xatolarni bartaraf etishga o'rgatadi. Uni qo'llash quyidagicha: Sinf birinchi va ikkinchi hamkor qismlarga bo'linadi.

- Darsni o'tish modelidan foydalanib birinchi hamkor ikkinchisiga, ikkinchi hamkor esa birinchisiga modeldagi qismlarni o'rgatadi.
- O'qituvchi xohlovchilarga ta'lim metodlari vositasida model qismlarini avval tushuntiradi keyin ko'rsatadi. O'quvchilar o'qituvchi aytgan va ko'rsatganlarini takrorlaydilar va bajaradilar.

- O'qituvchi sinfni nazorat qilish uchun o'ziga ixtiyoriy 2 nafar hamkorni tanlaydi. O'qituvchi o'z hamkorlariga modelni bosqichma-bosqich bajartirib ko'radi. Tushunmaganlarini tushunib o'rganishlariga yordam beradi.

- O'qituvchi sinfdagi hamkorlarga birinchi qismni bir-birlariga o'rgatishlari va bajarishlarini aytadi. Ularni ishlarini nazorat qilib, kamchiliklarni bartaraf etishga yordamlashadi. Shundan keyingina navbatdagi bosqichgacha o'tiladi. O'qituvchining hamkorlari esa sinfni nazorat qilishga o'qituvchiga yordamlashadilar.

- Bu ish usuli modelning boshqa qismlarini ham bajarishda davom etadi. Bu o'quvchilarni bir-biriga va o'ziga talabchan bo'lishga, xatolarni o'z vaqtida bartaraf etishga, ishni tanqidiy baholay bilishga o'rgatadi.

Tushunchalarni tekshirishda o'qituvchi turli interaktiv metodlar ("Bumerang", "Charxpalak", "Aql charxi" va boshqalar)dan foydalanishi mumkin. Masalan, "Charxpalak metodi". O'quvchilar guruhlariga bo'linib, ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi.

O'quvchilar topshiriqni bajarganlaridan keyin ularning ishlari guruhdagi boshqa o'quvchilarga tarqatildi. Ular tegishli o'zgartishlar kiritganlaridan keyin yana boshqa o'quvchilarga beriladi va shu tarzda o'quvchilarning har birining ishi guruhdagi barcha o'quvchilar qo'lidan o'tadi va oxiri o'ziga qaytadi. Har birlari o'zlari nuqtai nazaridan ishga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin. Keyin o'qituvchi to'g'ri javobni ko'rsatadi. Bu usulda o'quvchilar ijodiy fikrlashga, o'z fikrlarini erkin bayon etishga va o'z kamchiliklarini bilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

"Aql charxi" usulida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutq ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi.

Bu o'yinda ikki yoki uchta o'quvchidan iborat guruhchalar ishtirok etiladi. Birinchi o'quvchi mavzuga doir terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan terminni qaytaradi va o'zi ham bitta termin aytadi. Uchinchi o'quvchi avvalgi ikkita terminni qaytaradi va bitta termin qo'shib aytadi. Yana birinchi o'quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta terminni qaytaradi va o'zi bitta termin qo'shib aytadi. Qaysi o'quvchi adashib ketsa yoki aytilgan

terminlardan qaytarib aytsa o'yindan chiqadi. Shu tariqa o'quvchilar guruhi davom etadi. Bu o'yinni tashkil etishda maqsad aniq bo'lishi va o'quvchilarning qaysi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga e'tibor qaratilishi muhim. Masalan: sport turlarini ayting:

1-o'quvchi: futbol

2-o'quvchi: futbol – voleybol

3- o'quvchi: futbol – voleybol – boks

1- o'quvchi: : futbol – voleybol – boks–tennis

2- o'quvchi: : futbol – voleybol – boks–tennis – karate

3- o'quvchi: futbol – voleybol – boks–tennis – karate va boshqalar.

O'quvchi so'zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo'l qo'ysa o'yindan chiqadi. Xuddi shu taxlitda "Sport turlari" va boshqa mavzularini o'rganishda ham bu o'yindan foydalanish mumkin. Ayniqsa bu o'yin darslarni umumlashtirish va takrorlash darslarida qo'l keladi.

Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, o'quvchilarning darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interaktiv metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Masalan, **"Baxtli tasodif" usuli.**

"Baxtli tasodif" usuli orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog'lik o'rganilganligini aniqlash oson bo'ladi. Buning uchun qog'ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savollar qo'yiladi. Faqat bitta kartochkaga "Yutuq "5" baho" deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga tushsa "Baxtli tasodif" sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oladi. Savolli kartochkalar olgan o'quvchilar ham savollarga bergan javoblari asosida baholanadilar. Masalan, jismoniy tarbiya darsida "baxtli tasodif" o'yini quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

"Baxtli tasodif" o'yini uchun tuzilgan kartochkalar:

1. Baxtli tasodif – 1Jismoniy tarbiya prinsiplari qaysilar?
2. Jismoniy tarbiya sistemasining asosini nimalar tashkil qiladi?

1. Baxtli tasodif – 2 Jismoniy tarbiyaning xarakterli belgilari?

2. Voleybol qanday sport turi.?

Baxtli tasodif – 3 Jismoniy mashklar ta'sirini aniqlaydigan omillar?

1. Basketbol qanday o'ynaladi?

Baxtli tasodif – 4Yutuq «5» baho. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda interaktiv usullar darsning qiziqarliligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol subyektlariga aylantiradi.

XULOSALAR.

Mustaqil davlatimizning taraqqiyoti ta'limning barcha sohalaridagi kabi jismoniy tarbiya sohasida ham katta islohotlarni talab qiladi. Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jamiyatning muhim ehtiyojini qondirishning eng zarur shartidir.

Jamiyatning yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun boshlang'ich sinfdan boshlaboq tinimsiz izlanish, ta'limning yangi samarali usullarini qidirish va kashf qilish zarur.

Bizning tadqiqotlarimiz asosida turgan konsepsiya ham boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo'llagan holda o'quvchilarning o'qish motivini o'stirish va ularning fanni o'zlashtirishga qiziqish va ehtiyojini tarbiyalashdir.

Motivning mavjudligi shaxsning o'quv faoliyatga erkin kirishuvi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida erkin muloqotning shakllanishi va tez til topa bilishini ta'minlashga yordam beradi.

Biz tadqiqotimiz davomida quyidagilarni o'rgandik:

1. Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyani qo'llashga oid o'qituvchilarining ilg'or tajribalarini;
2. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo'llashga oid tajribalar juda kam ekanligiga ishonch hosil qildik.

Olib borgan tadqiqotlarimiz bitiruv malakaviy ishimiz farazining to'g'riligini isbotladi. Ya'ni jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologilar joriy etilishi, o'qish motivlarini har tomonlama rivojlantirilishi, pedagogik texnologiyaning mohiyatini anglatishga erishilishi, unga doir bilim, ko'nikma va malakalar chuqur egallanilishi va ular ta'lim amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanilishi jismoniy tarbiya darslari jarayonida yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

Tadqiqotimiz davomida jismoniy tarbiya darslarini takomillashtirishning yangi shakl va usullaridan foydalandik.

Tadqiqotimiz natijasida quyidagi **xulosaga** keldik:

Hozirgi davrda ta'limning eng muhim vazifalaridan biri pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilishdir.

1. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'qish motivlarini har tomonlama o'stirishga e'tibor qaratilsa o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayonlari samarali bo'ladi.

2. Jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish zarur. Bu tizim o'quvchi – o'qituvchi hamkorligi asosida o'quvchilarning erkin fikrlashiga yo'l ochib berishga qaravilmog'i lozim.

3. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida modulli o'qish usulidan foydalanilsa o'quvchilarning erkin, mustaqil fikrlashiga keng yo'l ochiladi.

4. Jismoniy tarbiya darslarida biz yuqorida tavsiya etgan ish tizimidan foydalansa kutilgan samaraga erishish mumkin, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T. O'zbekiston,1995.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan).
3. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan) – Barkamol avlod – izbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq, 1997.
4. O'zbekistan Respublikasi qonuni «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risidagi» 27.06.2000 (yangi taxriri). – T., 2000. 21 s
5. А.Д.Новиков «Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси» Ўкитувчи нашриёти 1975 й
6. Н.П.Клусов «Тактика гандбола» Москва 1980 ФиС
7. А.Ратионидзе, В.Марихук «Игра гандбольного вратаря» Москва ФиС 1981 г.
8. П.Н. Казаков «Футбол» Тошкент 1981. «Ўкитувчи» нашриёти
9. Р.И.Нуримов «Эффективность совершенствования ловкости высококвалифицированных футболистов в связи с результатами её контроля Автореферат. ДиС на соискание КПН Москва 1982 г.
10. В.Я.Игнатева «Гандбол» Учебное пособие Москва 1983. ФиС
11. Гандбол. «Поурочная программа для детско-юношеских школ.» Москва. 1984 г.

12. Ю.И. Портных «Спортивные игры и методика преподавания» «Физкультура и спорт» 1986 й.
13. А.Ш.Косимов, О.Т.Расулев ва Х.А. Исматуллаев «Баскетбол» Ўқитувчи нашриёти 1986 й.
14. Ш.К.Павлов «Кўл тўпи» (мусобақалар қоидалари) 1987 й.
15. Ч.Л. Горбальяускас «Играем в ручной мяч» Москва «Просвещение» 1988 г.
16. Р.А.Акрамов «Ёш футболчиларни танлаб олиш ва тайёрлаш» Медицина нашриёти. 1989 й.
17. Ш.К.Павлов «Кўл тўпи» (дарслик) ЎзДЖТИ нашриёти 1990 й.
18. Ш.К.Павлов, Ф.А.Абдурахманов, И.Н.Шелягина «Гандбол мутахасислиги талабаларининг ўқув-тадқиқот ишлари. Методик тавсиянома». ЎзДЖТИ нашриёти 1991 й.
19. М.П.Шестаков «Гандбол. Тактическая подготовка. Спорт. Академ. Пресс». Москва 2001 й.
20. А.К.Хамракулов., Т.Т.Юнусов., А.К.Акрамов «Основы Олимпийских знаний» Тошкент-2001 Издателско-полиграфический отдел УзГосИФК
21. Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. Т.: Зар қалам, 2004.
22. Ф.А.Керимов «Спорт кураши назарияси ва усулияти» Тошкент-2001 ЎзДЖТИ нашриёт-матбаа бўлими.

23. К.Д.Ярашев «Жисмоний тарбия ва спортни бошқариш» Абу Али
ибн Сино нашриёти 2002 й.

<http://www.ziyonet.uz/>

<http://www.pedagog.uz/>

<http://www.olympic.uz>

<http://www.study.uz>